ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ABDIKADIROV SULTANBAY MAMUTOVICH

SEPARAT-GARMONIK VA α-SEPARAT-GARMONIK FUNKSIYALARNI ANALITIK DAVOM ETTIRISH

01.01.01 – Matematik analiz

fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Nukus shahri – 2025 yil

UDK: 517.55

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Abdikadirov Sultanbay Mamutovich
Separat-garmonik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarni analitik davom ettirish 3

Абдикадиров Султанбай Мамутович
Аналитическое продолжение сепаратно-гармонических и $\boldsymbol{\alpha}$-сепаратно-гармонических функций 19

Abdikadirov Sultanbay Mamutovich
Analytic continuation of separatly harmonic and $\boldsymbol{\alpha}$-separatly harmonic functions... 37

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.. 41

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ABDIKADIROV SULTANBAY MAMUTOVICH

SEPARAT-GARMONIK VA α-SEPARAT-GARMONIK FUNKSIYALARNI ANALITIK DAVOM ETTIRISH

01.01.01 – Matematik analiz

fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Nukus shahri – 2025 yil

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida № B2024.1.PhD/FM1000 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq Davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-mat.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Imomkulov Sevdiyor Akramovich** fizika-matematika fanlari doktori
Rasmiy opponentlar:	**Shoimqulov Bahodir Allaberdievich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Atamuratov Alimardon Abdirimovich fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "10" may soat 10 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-66-11; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: ik-mat.urdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (Д792- raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-66-11; faks: (99862) 224-67-00). e-mail: arm@urdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "22" aprel kuni tarqatildi.

(2025 yil "22" aprel dagi 2- raqamli reestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

B.I. Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori

A.A. Reyimberganov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari nomzodi

B.A. Babajanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori

KIRISh (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida zamonaviy matematikaning ko‘plab sohalarida olib borilayotgan aksariyat ilmiy va amaliy tadqiqotlarda golomorf, subgarmonik va garmonik funksiyalar keng qo‘llanilmoqda. Bugungi kunda separat-analitik va separat-garmonik funksiyalarni analitik davom ettirish hamda ularning bartaraf etiladigan maxsusliklarini aniqlash masalalari potensiyallar va plyuripotensiyallar nazariyasi sohalaridagi tadqiqotlarning eng ko‘p o‘rganilayotgan asosiy masalasi hisoblanadi. Shuningdek, separat-garmonik funksiyalarning umumlashmasi bo‘lgan $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarni analitik davom ettirish masalasiga doir tadqiqotlarni olib borish bugungi kunda matematik analizning muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahon miqyosida matematik analizning eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri plyuripotensiallar nazariyasi asosida ko‘p o‘lchamli haqiqiy va kompleks fazolardagi sohalarda separat-analitik, separat-garmonik va separat-subgarmonik funksiyalarni analitik davom ettirish muammolarini tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu masalalar zamonaviy ko‘p o‘lchamli kompleks analizning istoqbolli yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lib, nazariy fizikada, xususan, maydonning kvant nazariyasida keng tatbiqlarga ega. Xususan, $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmonik funksiyalar sinflari separat-garmonik va separat-subgarmonik funksiyalar sinflarining kengaytmasi sifatida yangi tadqiqot yo‘nalishlarini aniqlaydi. Shu sababli separat-garmonik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarni analitik davom ettirish, ularning bartaraf etiladigan maxsusliklarini o‘rganish muhim ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqlariga ega bo‘lgan sohalariga e’tibor kuchaytirilmoqda. Jumladan, so‘ngi yillarda ko‘p o‘lchamli kompleks analizda plyuripotensiallar nazariyasining masalalarini o‘rganishda separat-analitik, separat-subgarmonik va separat-garmonik funksiyalarni analitik davom ettirish va ularning bartaraf etiladigan maxsuslik to‘plamlarini tavsiflashda salmoqli natijalarga erishildi. Matematika sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlari ko‘lamini kengaytirish, ularning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish matematika va uning tatbiqlari sohasidagi tadqiqotlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan[1]. Ushbu qaror ijrosini ta’minlashda plyuripotensiallar nazariyasini rivojlantirish, xususan $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmonik funksiyalarni analitik davom ettirish masalalarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda ushbu faoliyat sohasiga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot IV. “Matematika, mexanika va informatika” yo‘nalishida belgilangan O‘zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalarni analitik davom ettirish masalalari AQSh, Germaniya, Shvetsiya, Fransiya, Rossiya (F.Hartogs, Y.Sichak, V.P. Zahariuta, T.V.Nguen, A.Zeriahi, P. Pflug, V. A. Nguen, E. M. Chirka, va b.) va O‘zbekiston (A. Sadullaev, S. A. Imomkulov, T. T. To‘ychiev, J. U. Xo‘jamov) olimlarining ishlarida o‘rganilgan. Shuningdek, P. Lelon, T. V. Nguen, V. P. Zahariuta, T. Begbi, N. Levenberg, A. Zeriahi, J. M. Hekart, A. Sadullaev, S. A. Imomkulov, Y. R. Saidov, J. S. Raymond va Z. Bloski ishlarida ko‘p o‘zgaruvchili plyurigarmonik, separat-garmonik va haqiqiy-analitik funksiyalarni analitik davom ettirish masalalari o‘rganilgan.

Mashhur Hartogs teoremasi shuni ta’kidlaydiki, $D\times G\subset\mathbb{C}^n(z)\times\mathbb{C}^m(w)$ *sohada separat-golomorf bo‘lgan* $f(z,w)$ *funksiya ushbu sohada barcha o‘zgaruvchilari bo‘yicha bir yo‘la golomorf bo‘ladi*. 1961-yilda P. Lelon separat-garmonik funksiyalar uchun ushbu teoremaning analogini isbotladi: *agar* $u(x,y)$ *funksiya* $D\times G\subset\mathbb{R}^n(x)\times\mathbb{R}^m(y)$ *sohada separat-garmonik bo‘lsa, u holda* $u(x,y)$ *ushbu sohada barcha o‘zgaruvchilari bo‘yicha bir yo‘la garmonik bo‘ladi.*

Lelon tomonidan ushbu ish nashr etilishi bilan separat-garmonik, separat R-analitik va separat-subgarmonik funksiyalar ko‘plab mualliflarning tadqiqot obyektiga aylandi. Asosiy urg‘u quyidagi muammoga qaratildi: *separat-subgarmonik funksiya barcha o‘zgaruvchilari bo‘yicha bir yo‘la subgarmonik bo‘ladimi*? Bu savolga javob salbiy, aniqrog‘i, 1988-yilda Yan Vigerink barcha o‘zgaruvchilari bo‘yicha bir yo‘la subgarmonik bo‘lmagan separat-subgarmonik funksiyaga misol tuzdi.

Qo‘shimcha shartlar qo‘yish orqali, bu masala turli mualliflar, jumladan, V. Avanissian, M. G. Arsov, J. Riihentaus, shuningdek, D. M. Armitidj va S. J. Gardnerlarning ishlarida o‘rganilib, muhim natijalarga erishildi.

Separat-subgarmonik funksiyalarni o‘rganishdagi keyingi yutuqlar qo‘shimcha shartlar bilan bog‘liq, masalan, o‘zgaruvchilarning bir guruhi bo‘yicha garmoniklik yoki haqiqiy-analitiklik kabi (S. Imomkulov, S. Kolodzey va J. Torbiornson, J. Riihentaus, U. Segrel va A. Sadullaev).

Bir va ko‘p kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyalari o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadigan asosiy teoremalardan biri Osgud-Braun teoremasidir: *agar* f *funksiya* $\Omega\subset\mathbb{C}^n$ $(n>1)$ *sohaning, sohani bo‘lmaydigan (ya’ni* $\Omega\backslash K$ *bog‘lamli)* $K\Subset D$ *to‘plamdan tashqari, barcha nuqtalarida golomorf bo‘lsa, u holda* f *butun* Ω *sohaga* *golomorf davom etadi.* Bu teorema shuni ko‘rsatadiki, ko‘p o‘zgaruvchili golomorf funksiyalar kompakt maxsusliklarga ega bo‘la olmaydi. 2007-yilda Sachiko Hamano separat-garmonik funksiyalar uchun ushbu teoremaning analogini isbotladi: *aytaylik,* $D - \mathbb{R}^n(x)\times\mathbb{R}^m(y)$, $n,m>1$, *dagi soha,* $D \Supset K$ *– kompakt va* $D\backslash K$ *bog‘lamli. Agar* $u(x,y)$ *funksiya* $D\backslash K$ *da separat-garmonik bo‘lsa, u holda bu funksiya* D *ga separat-garmonik davom etadi.*

Mamlakatimizda golomorf, garmonik va subgarmonik funksiyalarning bartaraf etiladigan maxsusliklari haqidagi masala ko‘plab tadqiqotchilar (A. Sadullayev, B. I. Abdullayev, S. A. Imomkulov, J. R. Yarmetov va boshqalar) tomonidan batafsil o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universiteti Matematik analiz kafedrasining “Kompleks potensiallar nazariyasi” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar rejasi (2020-2024 yillar) doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi separat-garmonik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarni analitik davom ettirish masalasini o‘rganish, shuningdek, ushbu funksiyalarning bartaraf etiladigan maxsusliklarini tadqiqot qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

garmoniklik radiusi o‘zgaruvchan bo‘lgan seperat-garmonik funksiyalar uchun Hartogs lemmasining analogini isbotlash;

tekisliklar dastasida garmoniklik shartlarini qanoatlantiruvchi separat-garmonik funksiyalar uchun Hartogs lemmasining analogini isbotlash;

$\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmonik funksiyalarning α-subgarmonikligini va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarning α-garmonikligini isbotlash;

$\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalar uchun Lelon teoremasining analogini isbotlash;

$\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarni tayinlangan yo‘nalish bo‘yicha analitik davom ettirish haqidagi teoremani isbotlash, bu yerda $\boldsymbol{\alpha}=(\alpha',\alpha'')$ – haqiqiy-analitik differensial biforma;

separat-garmonik funksiyalar uchun Osgud-Braun tipidagi teoremalarni isbotlash;

$\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalar uchun Osgud-Braun teoremasining analogini isbotlash;

Tadqiqot obyekti. Separat-garmonik, separat-subgarmonik, α-garmonik va α-subgarmonik, $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmonik funksiyalar.

Tadqiqot predmeti. Separat-garmonik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarning garmoniklik sohalari va bartaraf etiladigan maxsusliklar to‘plami.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada haqiqiy va kompleks ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi, klassik potensial nazariyasi va plyuripotensial nazariyasi, shuningdek, funksional analiz usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dissertatsiyada olingan barcha natijalar yangi bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

plyurisubgarmonik funksiyalar sinfining qismi bo‘lgan $\mathcal{H}$ sinf va h-plyuripolyar to‘plamlar yordamida o‘zgaruvchan garmoniklik radiusiga ega bo‘lgan separat-garmonik funksiyalar uchun Hartogs lemmasining analogi isbotlangan;

o‘zgaruvchan garmoniklik radiusiga ega bo‘lgan separat-garmonik funksiyalar uchun Hartogs lemmasidan foydalanib, ushbu lemmani tekisliklar dastasida garmoniklik shartlarini qanoatlantiruvchi separat-garmonik funksiyalar uchun umumlashtiruvchi teorema isbotlangan;

ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi funksiyalar sinfida aniqlangan operatorlar yordamida $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmonik funksiyalarning ta’riflari kiritilgan;

$\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmoniklik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmoniklik tushunchalari asosida $\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmonik funksiyalarning α-subgarmonikligi haqidagi va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarning α-garmonikligi haqidagi teorema isbotlangan;

golomorf funksiyalarga o‘tish va golomorf davom ettirish prinsiplaridan foydalanib, $\boldsymbol{\alpha}$ haqiqiy-analitik differensial biforma bo‘lganida, $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalar uchun Lelon teoremasining analogi isbotlangan;

α-garmonik funksiyalarni golomorf davom ettirish va Sichak-Zaharyuta teoremasini qo‘llash orqali, α haqiqiy-analitik differensial forma bo‘lganida, $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarni tayinlangan yo‘nalish bo‘ylab analitik davom ettirish to‘g‘risidagi teorema isbotlangan;

separat-analitik funksiyalarni analitik davom ettirish haqidagi teorema va $\mathcal{P}$-o‘lchovning xususiyatlaridan foydalangan holda, separat-garmonik funksiyalar uchun Osgud-Braun tipidagi teoremalar isbotlangan;

$\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalar uchun Lelon teoremasining analogi va Puasson karrali integralining analogini qo‘llagan holda, $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalar uchun Osgud-Braun teoremasining analogi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Funksiyalarning turli sinflari uchun $\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmonik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarni aniqlash usullari berilib, ular analitik davom ettirish masalalarida muvaffaqiyatli qo‘llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi asosiy natijalarning qat’iy matematik isbotlari bilan tasdiqlanadi, haqiqiy va kompleks ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalar, klassik potensiallar, pluripotensiallar nazariyasining taniqli usullari va funksional analiz usullaridan foydalanish bilan asoslanadi. Bundan tashqari, dissertatsiyada olingan natijalarning nufuzli ilmiy nashrlarda, shu jumladan impakt faktorli ilmiy jurnallarda nashr qilinganligi va ilmiy seminarlarda ishning muhokamadan o‘tkazilganligi dissertatsiya natijalarining ishonchliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati separat-garmonik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarni analitik davom ettirish usullari ishlab chiqilganligi va ushbu funksiyalarning bartaraf etiladigan maxsusliklari haqidagi natijalar olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati funksiyalarning turli sinflari uchun $\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmonik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarni aniqlash separat-subgarmonik va separat-garmonik funksiyalar sinfini kengaytirish imkonini berganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada olingan natijalar quyidagi ilmiy-tadqiqot loyihalarida qo‘llanilgan:

separat-analitik funksiyalarni analitik davom ettirish haqidagi ilmiy natijalardan va separat-garmonik funksiyalar uchun Osgud-Braun tipidagi teoremalar RFTJning

“Ko‘p o‘lchamli kompleks analaiz” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida separat-garmonik funksiyalarning bartaraf etiladigan maxsusliklarini o‘rganishda foydalanilgan (Sibir Federal universitetining 2024-yil 19-sentyabrdagi 475-sonli ma’lumotnomasi, Rossiya). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi ko‘p o‘lchamli kompleks analizda α-separat-garmonik funksiyalarning maxsusliklari bilan bog‘liq masalalarni yechish imkonini bergan;

o‘zgaruvchan garmoniklik radiusiga ega bo‘lgan separat-garmonik funksiyalar uchun Hartogs lemmasining analogi va ushbu lemmani tekisliklar dastasida garmoniklik shartlarini qanoatlantiruvchi separat-garmonik funksiyalar uchun umumlashtiruvchi ilmiy natijalar UT-OT-2020-1 raqamli “Monje-Amper tenglamasi va ekstremal plyurisubgarmonik funksiyalar” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida α-separat-garmonik funksiyalarni analitik davom ettirish va ularning bartaraf etiladigan maxsusliklarini o‘rganishga tadbiq etilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 30-oktabrdagi №04/11-9658 sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi haqiqiy va kompleks fazolarda golomorf, garmonik va subgarmonik funksiyalarning davom ettirish masalalarini tadqiq qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan. Shuningdek, tadqiqot ishi natijalari O‘zbekiston Milliy universitetining Matematik analiz kafedrasi huzuridagi “Kompleks analizning zamonaviy muammolari” ilmiy seminari (seminar raisi: akademik A. Sadullayev va DSc K. Rahimov) va V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Qoraqalpog‘iston bo‘limi va Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Matematika fakulteti qo‘shma ilmiy seminari (seminar raisi: professor K. Kudaybergenov) muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy (Scopus) va 4 tasi esa respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Har bir bobda teoremalar, takliflar, ta’riflar va formulalar alohida raqamlanadi. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 83 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’yekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Dastlabki ma’lumotlar va masalaning qo‘yilishi”** deb nomlangan birinchi bo‘limi yordamchi xarakterga ega. Unda dissertatsiya matnini bayon qilishda muhim bo‘lgan asosiy belgilashlar va zarur ma’lumotlar, shu jumladan, ta’riflar va teoremalar keltirilgan, shuningdek, tadqiqotning vazifalari qo‘yilgan.

Birinchi bo‘limning birinchi paragrafida separat-garmonik va separat-subgarmonik funksiyalarning asosiy xossalari, shuningdek, ularning analitik davomi ko‘rib chiqiladi. Bu funksiyalarning $\mathbb{R}^n(x)\times\mathbb{R}^m(y)$ fazoning turli sohalaridagi ta’riflari keltiriladi va Lelon, Zeriahi, Sadullaev, Imomkulov teoremalari kabi asosiy natijalar hamda separat-garmonik va separat-subgarmonik funksiyalar nazariyasining asosini tashkil etuvchi boshqa muhim tasdiqlar qaraladi.

Aytaylik, $\mathbb{R}^n(x)\times\mathbb{R}^m(y)\supset D\times G$ – soha, $D\supset E$ va $G\supset F$ – ixtiyoriy qism to‘plamlar bo‘lsin. Faraz qilaylik, $E\times F$ to‘plamda dastlab aniqlangan $u(x,y)$ funksiya quyidagi xossalarga ega bo‘lsin:

a) har qanday tayinlangan $x^0\in E$ uchun $u(x^0,y)$ funksiya G sohaga garmonik davom etadi;

b) har qanday tayinlangan $y^0\in F$ uchun $u(x,y^0)$ funksiyasi D sohaga garmonik davom etadi.

U holda, $u(x,y)$ funksiyaning ushbu davomlari $X=(E\times G)\cup(D\times F)$ to‘plamda ba’zi bir funksiyani aniqlaydi va u *separat-garmonik* funksiya deyiladi.

Agar $E=D$ va $F=G$ bo‘lsa, unda $u(x,y)$ funksiya $X=D\times G$ *sohada* separat-garmonik, ya’ni o‘zgaruvchilar guruhlari bo‘yicha separat-garmonik funksiya deb ataladi.

X to‘plam, umuman olganda, soha emas. Ikki sohaning ko‘paytmasi sifatida ko‘rsatib bo‘lmaydigan ixtiyoriy soha uchun separat-garmonik funksiya quyidagicha aniqlanadi:

1-ta’rif. *Agar $u(x,y)$ funksiya $Q\subset\mathbb{R}^n(x)\times\mathbb{R}^m(y)$, $n,m>1$, sohada aniqlangan va quyidagi xossalarga ega bo‘lsa:*

1) har qanday $x^0:\{x=x^0\}\cap Q\neq\varnothing$ uchun $u(x^0,y)$ funksiya y o‘zgaruvchi boyicha $\{x=x^0\}\cap Q$ kesimda garmonik;

2) har qanday $y^0:\{y=y^0\}\cap Q\neq\varnothing$ uchun $u(x,y^0)$ funksiya x o‘zgaruvchi bo‘yicha $\{y=y^0\}\cap Q$ kesimda garmonik,

unda $u(x,y)$ funksiya Q sohada separat-garmonik funksiya deyiladi.

Separat-subgarmonik funksiyalar har bir o‘zgaruvchi uchun alohida mos keladigan subgarmoniklik shartlaridan foydalangan holda mutlaqo o‘xshash tarzda aniqlanadi.

Endi quyidagi umumiy masalani ko‘rib chiqamiz: *aytaylik,* $E \subset D \subset \mathbb{R}^n$, $F \subset G \subset \mathbb{R}^m$ *va* $u(x,y)$ *funksiya*

$$X = \left(E \times G\right) \cup \left(D \times F\right)$$

to‘plamda separat-garmonik bo‘lsin. $u(x,y)$ *funksiya barcha o‘zgaruvchilar bo‘yicha bir yo‘la garmonik davom etadigan* $\hat{X}$, $X \subset \hat{X}$ *sohani tavsiflash talab etiladi.*

Bu muammo E va F to‘plamlarga qo‘shimcha shartlar, masalan, kompakt to‘plamlarning H-regulyarligi yoki ularning plyuripolyar emasligi kabi shartlarni qo‘yish orqali hal qilingan.

2-ta’rif. $K \subset \mathbb{R}^n$ *kompakt* a *nuqtada* H*-regulyar deyiladi, agar har qanday* $b > 1$ *uchun shunday* $M > 0$ *va* a *nuqtaning* V *ochiq atrofi mavjud bo‘lib,*

$$\|p\|_V \le M b^n \|p\|_K, \ \forall p \in \mathcal{P}_k\left(\mathbb{R}^n\right), \ \forall k \in \mathbb{N},$$

bo‘lsa, bu yerda $\mathcal{P}_k(\mathbb{R}^n)$ – $\mathbb{R}^n$ *dagi darajasi* k *dan katta bo‘lmagan barcha garmonik ko‘phadlar fazosi.* K *kompakt* H*-regulyar deyiladi, agar u har qanday* $a \in K$ *uchun* a *nuqtada* H*-regulyar bo‘lsa.*

3-ta’rif. *Quyidagicha olamiz:*

$$\omega_{sh}(x,E,D) = \sup\left\{u(x) : u(x) \in sh(D), u\big|_E \le 0, u\big|_D \le 1\right\}.$$

Unda

$$\omega_{sh}^*(x,E,D) = \overline{\lim_{x' \to x}}\, \omega_{sh}(x',E,D), \ x \in D,$$

E *to‘plamning* D *sohaga nisbatan garmonik o‘lchovi deb ataladi.*

1982 yilda A. Zeriahi quyidagi natijani olgan.

1-teorema (Zeriahi). *Aytaylik,* $D \times G$ – $\mathbb{R}^2(x) \times \mathbb{R}^2(y)$ *fazodagi soha va* $E \subset D$, $F \subset G$ – H*-regulyar kompakt to‘plamlar bo‘lsin. U holda* $X = \left(E \times G\right) \cup \left(D \times F\right)$ *to‘plamda separat-garmonik bo‘lgan har qanday funksiya*

$$\hat{X} = \left\{(x,y) \in D \times G : \omega_{sh}^*(x,E,D) + \omega_{sh}^*(y,F,G) < 1\right\}$$

sohaga garmonik davom etadi.

Odatda, garmonik funksiyalarni davom ettirish uchun avval ularni golomorf funksiyalarga o‘tkazishadi va keyin golomorf davom ettirish prinsiplaridan foydalanishadi.

Quyidagi natija garmonik funksiyalarning davomini o‘rganishda asosiy rol o‘ynaydi.

1-tasdiq. *Aytaylik,* $\mathbb{R}^n(x)$ *fazo* $\mathbb{C}^n(z) = \mathbb{R}^n(x) + i \cdot \mathbb{R}^n(y)$ *fazoga joylashtirilgan, bu yerda* $z = \left(z_1, \ldots, z_n\right)$, $z_j = x_j + i \cdot y_j$, $j = 1, \ldots, n$, *va* D *ushbu* $\mathbb{R}^n(x)$ *fazodagi ba’zi chegaralangan soha bo‘lsin. U holda shunday* $\hat{D} \subset \mathbb{C}^n(z)$ *soha topilib,* $D \subset \hat{D}$ *va ixtiyoriy* $u(x) \in h(D)$ *funksiya uchun* $\hat{D}$ *sohada golomorf bo‘lgan shunday* $f_u(z)$ *funksiya mavjudki,* $f_u\big|_D = u$ *bo‘ladi. Qolaversa, har qanday* $M > 1$ *soni uchun* *shunday* $\hat{D}_M \subset \hat{D}$, $D \subset \hat{D}_M$, *qism soha mavjudki,* $\forall u \in h(D) \cap L^\infty(D)$ *uchun* $\|f_u\|_{\hat{D}_M} \le M\|u\|_D$ *bo'ladi (bu yerda* $\|u\|_D = \sup\{|u(x)| : x \in D\}$ *).*

4-ta'rif. *Agar shunday* $u \in psh(D)$ *funksiya mavjud bo'lib,* $u \not\equiv -\infty$ *va* $u|_E \equiv -\infty$ *bo'lsa,* $E \subset D \subset \mathbb{C}^n$ *to'plam* D *sohada plyuripolyar deb ataladi.*

5-ta'rif. *Aytaylik,* E – $D \subset \mathbb{C}^n$ *sohadagi ixtiyoriy to'plam. Quyidagicha olamiz:*

$$\omega(z,E,D) = \sup\{u(z) : u \in psh(D), u|_E \le 0, u|_D \le 1\}.$$

Unda

$$\omega^*(z,E,D) = \varlimsup_{z' \to z} \omega(z',E,D),\ z \in D,$$

E *to'plamning* D *sohaga nisbatan* $\mathcal{P}$*-o'lchovi (plyurisubgarmonik o'lchovi) deb ataladi.*

Ushbu faktlardan foydalanib, 2006 yilda A. Sadullaev va S. Imomkulov quyidagi natijani oldilar.

2-teorema (A. Sadullaev va S. Imomkulov). *Aytaylik,* $E \subset D \subset \mathbb{R}^n$ *va* $F \subset G \subset \mathbb{R}^m$ *to'plamlar* $\mathbb{C}^n = \mathbb{R}^n + i \cdot \mathbb{R}^n$ *va* $\mathbb{C}^m = \mathbb{R}^m + i \cdot \mathbb{R}^m$ *fazolarning qism to'plamlari ma'nosida plyuripolyar bo'lmagan kompakt to'plamlar bo'lsin. U holda* $X = (E \times G) \cup (D \times F)$ *to'plamda separat-garmonik bo'lgan har qanday* $u(x,y)$ *funksiya*

$$\hat{X} = \{(x,y) \in D \times G : \omega^*(x,E,\hat{D}) + \omega^*(y,F,\hat{G}) < 1\}$$

sohaga garmonik davom etadi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida garmonik funksiyalar sinfida ekstremal funksiyalar tushunchasi va ularning kompaktlarning regulyarligi bilan bog'liqligi ko'rib chiqilgan, bu esa ushbu funksiyalarning o'zini qanday tutishini tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi.

6-ta'rif. *Aytaylik,* D – $\mathbb{R}^n$ *dagi soha va* K – D *dagi kompakt bo'lsin. Quyidagini aniqlaymiz:*

$$\chi_0(x,K,D) := \lim_{\varepsilon \to 0} \chi_\varepsilon(x,K,D),$$

bu yerda $\chi_\varepsilon(x,K,D) := \varlimsup_{y \to x} \sup\{\lambda \ln|u(y)|,\ u \in h(D),\ 0 < \lambda < \varepsilon,\ \|u\|_K \le 1,\ \|u\|_D^\lambda \le e\}.$

7-ta'rif. *Aytaylik,* $\{D_s\}_{s \in \mathbb{N}}$ – $\mathbb{R}^n$ *fazodagi* $D_s \subset D_{s+1}$, $\bigcup_{s \in \mathbb{N}} D_s = D$ *shartlarni qanoatlantiruvchi sohalar ketma-ketligi va* $\{K_r\}_{r \in \mathbb{N}}$ – D_1 *sohaning* $K_{r+1} \Subset Int\, K_r$, $\bigcap_{r \in \mathbb{N}} K_r = K$ *shartlarni qanoatlantiruvchi kompakt qism to'plamlari ketma-ketligi bo'lsin.* (K,D) *bilan bog'liq bo'lgan* Zahariuta *ekstremal funksiyasi* $h(\cdot,K,D)$ *quyidagi formula orqali aniqlanadi:*

$$h(x,K,D) := \varlimsup_{y \to x} \lim_{r \to \infty} \chi(x,K_r,D),\ x \in D,$$

bu yerda $\chi(x,K,D) := \lim_{s \to \infty} \chi_0(x,K,D_s)$.

1-eslatma. *Agar* $n=2$ *bo'lsa, V. P. Zahariuta* $h(\cdot,K,D)$ *odatdagi* $\omega_{sh}(\cdot,K,D)$ *garmonik o'lchov ekanligini isbotladi.*

$\chi(\cdot,K,D)\geq\chi_0(\cdot,K,D)$ va $\chi(\cdot,K,D)\geq h(\cdot,K,D)$ ekanligini oson ko'rish mumkin.

V.P. Zahariuta tomonidan kiritilgan yuqoridagi ekstremal funksiyadan foydalanib, J.M. Hekart separat-garmonik funksiyalarning analitik davomi haqidagi quyidagi teoremani isbotladi.

3-teorema (Hekart). *Aytaylik,* D *va* G *sohalar mos ravishda* $\mathbb{R}^n$ *va* $\mathbb{R}^m$ *fazolardan, shuningdek* $E\subset D$ *va* $F\subset G$ *ikki* H*-regulyar kompaktlar berilgan bo'lsin. U holda* $X=(E\times G)\bigcup(D\times F)$ *to'plamda separat-garmonik bo'lgan har qanday funksiya*

$$\hat{X}=\left\{(x,y)\in D\times G:\overline{h}(x,E,D)+\overline{h}(y,F,G)<1\right\}$$

sohaga garmonik davom etadi, bu yerda $\overline{h}(x,E,D)=\lim\limits_{s\to+\infty}h(x,E,D_s)$, $D_s\nearrow D$, $s\to+\infty$.

Ko'p o'lchamli kompleks analizning turli masalalarini hal qilishda muhim rol o'ynaydigan subgarmonik funksiyalarning umumlashtirilgan sinflarini o'rganishga tabiiy ehtiyoj paydo bo'ladi. Shunday sinflardan biri α- subgarmonik funksiyalar sinfidir. Birinchi bobning uchinchi paragrafida α-garmonik va α-subgarmonik funksiya ta'riflari keltirilgan, shuningdek, ularning muhim xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Aytaylik, α – $D\subset\mathbb{C}^n$ sohadagi ixtiyoriy yopiq qat'iy musbat $(n-1,n-1)$ bidarajali differensial forma bo'lib, quyidagicha berilgan:

$$\alpha=\left(\frac{i}{2}\right)^{n-1}\sum_{j,k=1}^{n}\alpha_{jk}(z)dz[j]\wedge d\overline{z}[k],$$

bu yerda barcha j, k uchun $\alpha_{jk}(z)\in Lip_\lambda(D)$ va $0<\lambda<1$. Shu bilan birga, α forma yopiq:

$$d\alpha=0.$$

α ning qat'iy musbatligi shuni anglatadiki, har qanday $G\Subset D$ kompakt soha uchun $\varepsilon>0$ o'zgarmas son mavjud bo'lib, G da $\alpha-\varepsilon\beta^{n-1}$ differensial forma musbat bo'ladi, bu yerda $\beta=dd^c\left(|z|^2\right)$ – $\mathbb{C}^n$ dagi hajmning standart formasi.

8-ta'rif. *Ikki marta differensiallanuvchi* $u(z)\in C^2(D)$ *funksiya* $D\subset\mathbb{C}^n$ *sohada* α*-subgarmonik deb ataladi, agar* D *da differensial forma* $dd^cu\wedge\alpha\geq0$ *bo'lsa.* $u(z)\in L^1_{loc}(D)$ *funksiya* D *sohada* α*-subgarmonik deb ataladi, agar quyidagi shartlar bajarilsa:*

1) u D *da yuqoridan yarim uzluksiz, ya'ni* $\forall z^0\in D$ *uchun* $u(z^0)\geq\overline{\lim\limits_{z\to z^0}}u(z)$*;*

2) operator $dd^cu\wedge\alpha$ *umumlashgan ma'noda musbat, ya'ni*

$$\int u(z)\alpha(z)\wedge dd^c\omega(z)\geq0,\ \forall\omega\in F(D),\ \omega\geq0.$$

Agar $\alpha = \beta^{n-1} = \left(dd^c |z|^2\right)^{n-1}$ bo‘lsa, α-subgarmonik funksiyalar klassik subgarmonik funksiyalar bilan mos tushadi. Shuni ta’kidlash joizki, ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi $n=1$ funksiya uchun quyidagi tenglik bajariladi:

$$dd^c u \wedge \beta^{n-1} = (n-1)!\Delta u dV,$$

bu yerda Δ – Laplas operatori, dV esa $\mathbb{C}^n$ dagi hajm formasi. Agar $n=1$ bo‘lsa, ya’ni, soha kompleks tekislikda joylashgan bo‘lsa, funksiyaning α-subgarmonikligi uning oddiy subgarmonikligiga ekvivalent bo‘ladi. Bu holat yaxshi o‘rganilgan, shu sababli biz uni batafsil ko‘rib chiqmaymiz va keyingi izlanishlarda $n>1$ holatlarga e’tibor qaratamiz.

9-ta’rif. *Ikki marta differensiallanuvchi* $u(z) \in C^2(D)$ *funksiya* $D \subset \mathbb{C}^n$ *sohada* α*-garmonik deb ataladi, agar* D *da differensial forma* $dd^c u \wedge \alpha = 0$ *bo‘lsa.* $u(z) \in L^1_{loc}(D)$ *funksiya* $D \subset \mathbb{C}^n$ *sohada* α*-garmonik deb ataladi, agar umumlashgan ma’noda operator* $dd^c u \wedge \alpha = 0$ *bo‘lsa, ya'ni*

$$\int u(z)\alpha(z) \wedge dd^c \omega(z) = 0, \ \forall \omega \in F(D).$$

Dissertatsiyaning **“Separat-garmonik funksiyalarni tayinlangan yo‘nalish bo‘yicha davom ettirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida, separat-garmonik funksiyalarni tayinlangan yo‘nalish bo‘ylab analitik davom ettirish masalasi o‘rganiladi. Asosiy e’tibor ma’lum bir sohada aniqlangan separat-garmonik funksiyaning undan kengroq sohalar sinfiga davom ettirilishi mumkin bo‘lgan shartlarga qaratiladi.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida quyidagi teorema isbotlanadi.

4-teorema. *Agar* $u(x,y)$ *funksiya*

$$D \times V_r = D \times \left\{ y \in \mathbb{R}^2 : |y| < r, r > 1 \right\} \subset \mathbb{R}^n \times \mathbb{R}^2$$

sohada separat-garmonik bo‘lsa va har bir tayinlangan $x^0 \in D$ *uchun* $u(x^0,y)$ *funksiya* y *o‘zgaruvchi bo‘yicha* $\left\{ y \in \mathbb{R}^2 : |y| < R(x^0), R(x^0) > r \right\}$ *kattaroq doiraga garmonik davom etsa, u holda* $u(x,y)$ *funksiya* $\left\{ (x,y) \in \mathbb{R}^n \times \mathbb{R}^2 : |y| < R_*(x), x \in D \right\}$ *sohaga barcha o‘zgaruvchilar bo‘yicha bir yo‘la garmonik davom etadi, bu yerda* $-\ln R_*(x)$ *funksiya* $\mathcal{H}\left(\hat{D}\right)$ *sinfidagi ba’zi bir plyurisubgarmonik funksiyaning izi bo‘ladi.*

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafining asosiy natijasi quyidagi teorema bo‘lib, u bu natijani tekisliklar dastasida garmoniklik shartlarini qanoatlantiruvchi separat-garmonik funksiyalar holatiga umumlashtiradi.

5-teorema. *Agar* $u(x,y)$ *funksiya*

$$D \times V_r = D \times \left\{ y \in \mathbb{R}^2 : |y| < r, \ r > 1 \right\} \subset \mathbb{R}^n \times \mathbb{R}^2$$

sohada separat-garmonik bo‘lsa, va h*-plyuripolyar bo‘lmagan* E *to‘plamdan olingan har bir tayinlangan* $x^0 \in E \subset D$ *uchun* $u(x^0,y)$ *funksiya* y *o‘zgaruvchi* *bo'yicha butun $\mathbb{R}^2$ tekislikga garmonik davom etsa, u holda $u(x,y)$ funksiya $D\times\mathbb{R}^2$ sohaga barcha o'zgaruvchilar bo'yicha bir yo'la garmonik davom etadi.*

Dissertatsiyaning **"$\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalar"** deb nomlangan uchinchi bobida C^2 sinfda ishlovchi operatorlar qaralgan bo'lib, ular yordamida $D\times G\subset\mathbb{C}^n\times\mathbb{C}^m$ sohada $u(z,w)$ funksiyaning $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmoniklik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmoniklik kabi asosiy ta'riflari berilgan, bu yerda $\boldsymbol{\alpha}=(\alpha',\alpha'')$ – biforma.

Aytaylik, α' va α'' mos ravishda $(n-1,n-1)$ va $(m-1,m-1)$ bidarajali, yopiq va qat'iy musbat differensial formalar bo'lsin. Bundan tashqari, barcha koeffitsiyentlar uchun $\alpha'_{jk}(z)\in Lip_\lambda(D)$, $\alpha''_{jk}(w)\in Lip_\lambda(G)$, $0<\lambda<1$.

C^2 fazoda quyidagi operatorlarni ko'rib chiqamiz:

$$d_z d_{\bar z}^c u(z,w)\wedge\alpha'(z)=\left[\frac{i}{2}\sum_{j,k=1}^{n}\frac{\partial^2 u(z,w)}{\partial z_j\partial\bar z_k}dz_j\wedge d\bar z_k\right]\wedge$$

$$\wedge\left[\left(\frac{i}{2}\right)^{n-1}\sum_{j,k=1}^{n}\alpha'_{jk}(z)\,dz[j]\wedge d\bar z[k]\right]=$$

$$=\left(\frac{i}{2}\right)^{n}\sum_{j,k=1}^{n}(-1)^{k+j+1}\alpha'_{jk}(z)\frac{\partial^2 u(z,w)}{\partial z_j\partial\bar z_k}dz\wedge d\bar z\,,\ \forall w\in G;$$

$$d_w d_{\bar w}^c u(z,w)\wedge\alpha''(w)=\left[\frac{i}{2}\sum_{j,k=1}^{m}\frac{\partial^2 u(z,w)}{\partial w_j\partial\bar z_k}dw_j\wedge d\bar w_k\right]\wedge$$

$$\wedge\left[\left(\frac{i}{2}\right)^{m-1}\sum_{j,k=1}^{m}\alpha''_{jk}(w)\,dw[j]\wedge d\bar w[k]\right]=$$

$$=\left(\frac{i}{2}\right)^{m}\sum_{j,k=1}^{m}(-1)^{j+k+1}\alpha''_{jk}(w)\frac{\partial^2 u(z,w)}{\partial w_j\partial\bar w_k}dw\wedge d\bar w\,,\ \forall z\in D.$$

10-ta'rif. *$u(z,w)$ funksiya $D\times G$ sohada $\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmonik deyiladi, bu yerda $\boldsymbol{\alpha}=(\alpha',\alpha'')$ – biforma, agar u har bir o'zgaruvchi bo'yicha lokal integrallanuvchi va yuqoridan yarim uzluksiz bo'lsa, shuningdek, quyidagi shartlarni qanoatlantirsa:*

1) operator $d_z d_{\bar z}^c u\wedge\alpha'$ umumlashgan ma'noda musbat bo'lsa, ya'ni

$$\int u(z)\alpha'(z)\wedge d_z d_{\bar z}^c\omega(z)\ge 0\,,\ \forall\omega\in F(D)\,,\ \omega\ge 0;$$

2) operator $d_w d_{\bar w}^c u\wedge\alpha''$ umumlashgan ma'noda musbat bo'lsa, ya'ni

$$\int u(w)\alpha''(w)\wedge d_w d_{\bar w}^c\omega(w)\ge 0\,,\ \forall\omega\in F(G)\,,\ \omega\ge 0.$$

11-ta'rif. *$u(z,w)$ funksiya $D\times G$ sohada $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik deyiladi, bu yerda $\boldsymbol{\alpha}=(\alpha',\alpha'')$ – biforma, agar u har bir o'zgaruvchi bo'yicha lokal integrallanuvchi bo'lsa, shuningdek, quyidagi shartlarni qanoatlantirsa:*

1) umumlashgan ma'noda operator $d_z d_{\bar z}^c u\wedge\alpha'=0$, ya'ni

$$\int u(z)\alpha'(z) \wedge d_z d_{\bar{z}}^c \omega(z) = 0\,,\ \forall \omega \in F(D)\,;$$

2) umumiy ma'noda operator $d_w d_{\bar{w}}^c u \wedge \alpha'' = 0$*, ya'ni*

$$\int u(w)\alpha''(w) \wedge d_w d_{\bar{w}}^c \omega(w) = 0\,,\ \forall \omega \in F(G)\,.$$

Keyin $\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmonik funksiyalarning α-subgarmonikligi haqidagi teorema isbotlanadi, undan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, shunga o'xshash teorema $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalar uchun ham to'g'ri.

6-teorema. *Agar* $u(z,w) \in C^2\left(D \times G\right)$ *funksiya* $\boldsymbol{\alpha}$*-separat-subgarmonik bo'lsa, u holda barcha o'zgaruvchilar bo'yicha bir yo'la* $dd^c u(z,w) \wedge \alpha(z,w) \geq 0$*, ya'ni* $u(z,w)$ *funksiya* α*-subgarmonik bo'ladi, bu yerda* $\alpha(z,w) = \alpha'(z) \wedge \alpha''(w) \wedge \beta$ *va* $\beta = dd^c\left(|z|^2 + |w|^2\right)$.

7-teorema. *Agar* $u(z,w) \in C^2\left(D \times G\right)$ *funksiya* $\boldsymbol{\alpha}$*-separat-garmonik bo'lsa, u holda barcha o'zgaruvchilar bo'yicha bir yo'la* $dd^c u(z,w) \wedge \alpha(z,w) = 0$*, ya'ni* $u(z,w)$ *funksiya* α*-garmonik bo'ladi, bu yerda* $\alpha(z,w) = \alpha'(z) \wedge \alpha''(w) \wedge \beta$ *va* $\beta = dd^c\left(|z|^2 + |w|^2\right)$.

Albatta, savol tug'iladi: *qanday minimal shartlarda (*$\boldsymbol{\alpha} = (\alpha', \alpha'')$ *va* $u(z,w)$ *uchun)* $D \times G \subset \mathbb{C}^n \times \mathbb{C}^m$ *sohada* $\boldsymbol{\alpha}$*-separat-garmonik funksiya* α*-garmonik bo'ladi?*

Ushbu bobning asosiy maqsadi ushbu savolni o'rganishdir va ushbu bobning ikkinchi va uchinchi paragraflarida biz turli holatlar va shartlarni tahlil qilib, berilgan savolga qisman javoblar keltiramiz.

Bizga ma'lumki, agar α differensial forma haqiqiy analitik bo'lsa, unda α-garmonik funksiya ham haqiqiy analitik bo'ladi.

Quyidagi lemma o'rinli:

1-lemma. *Agar* α *differensial forma* $D \subset \mathbb{C}^n \cong \mathbb{R}^{2n}$ *sohada haqiqiy analitik bo'lsa, u holda shunday* $\tilde{D} \subset \mathbb{C}^{2n}$ *(*$\mathbb{C}^n \cong \mathbb{R}^{2n} \subset \mathbb{C}^{2n}$*) soha mavjudki,* D *da* α*-garmonik bo'lgan har qanday funksiya ushbu* $\tilde{D}$ *sohaga golomorf davom etadi.*

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalar uchun Lelon teoremasining quyidagi analogi isbotlangan.

8-teorema. *Agar* α' *va* α'' *mos ravishda* $D \subset \mathbb{C}^n$ *va* $G \subset \mathbb{C}^m$ *sohalarda haqiqiy analitik differensial formalar bo'lsa, u holda* $D \times G$ *sohada* $\boldsymbol{\alpha}$*-separat-garmonik bo'lgan har qanday* $u(z,w)$ *funksiya (bu yerda* $\boldsymbol{\alpha} = (\alpha', \alpha'')$*) haqiqiy analitik va barcha o'zgaruvchilar bo'yicha bir yo'la* α*-garmonik bo'ladi:* $dd^c u(z,w) \wedge \alpha = 0$, $\forall (z,w) \in D \times G$*, bu yerda* $\alpha = \alpha'(z) \wedge \alpha''(w) \wedge \beta$*,* $\beta = dd^c\left(|z|^2 + |w|^2\right)$.

Shuningdek, $\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmonik funksiyalar uchun quyidagi teorema isbotlangan.

9-teorema. *Agar $D\times G$ sohada $\boldsymbol{\alpha}=(\alpha',\alpha'')$ haqiqiy analitik differensial biforma berilgan bo'lsa va $u(z,w)$ funksiya $D\times G$ sohada $\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmonik bo'lib, quyidagi shartlarni qanoatlantirsa:*

1) har qanday tayinlangan $w^0\in G$ uchun $u(z,w^0)$ funksiya z o'zgaruvchi bo'yicha haqiqiy analitik;

2) har qanday tayinlangan $z^0\in D$ uchun $u(z^0,w)$ funksiya w o'zgaruvchi bo'yicha α''-garmonik. U holda $u(z,w)$ funksiya $D\times G$ sohada barcha o'zgaruvchilar bo'yicha bir yo'la haqiqiy analitik α-subgarmonik funksiya bo'ladi, bu yerda $\alpha=\alpha'(z)\wedge\alpha''(w)\wedge\beta$.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafida $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarni tayinlangan yo'nalish bo'yicha analitik davom ettirish haqida quyidagi teorema isbotlangan.

10-teorema. *Aytaylik, $\boldsymbol{\alpha}=(\alpha',\alpha'')$ – chegaralangan $D\times G$ sohada haqiqiy analitik differensial biforma va $\alpha=\alpha'\wedge\alpha''\wedge\beta$ bo'lsin. Agar $u(z,w)$ funksiya $D\times U\subset D\times G$ qism sohada α-garmonik bo'lsa va har bir tayinlangan $z^0\in D$ uchun $u(z^0,w)$ funksiya G sohada w o'zgaruvchi bo'yicha α''-garmonik davom etsa, u holda $u(z,w)$ funksiya $D\times G$ sohada barcha o'zgaruvchilar bo'yicha bir yo'la α-garmonik davom etadi. Bundan tashqari, bu davom ettirish $D\times G$ sohada $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiya bo'ladi.*

Dissertatsiyaning **"Separat-garmonik va α-separat-garmonik funksiyalar uchun Osgud-Braun teoremasining analoglari"** deb nomlangan to'rtinchi bobida separat-garmonik funksiyalar uchun Osgud-Braun tipidagi teoremalar isbotlangan. Shuningdek, $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalar uchun Osgud-Braun teoremasining analogi isbotlangan bo'lib, bu $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalar, separat-garmonik funksiyalar kabi, kompakt maxsusliklarga ega emasligini ko'rsatadi.

To'rtinchi bobning birinchi paragrafida separat-garmonik funksiyalar uchun Osgud-Braun tipidagi bir nechta teoremalar isbotlangan.

11-teorema. *Agar S – $D\subset\mathbb{R}^n(x)\times\mathbb{R}^m(y)$, $n,m>1$, sohaning yopiq (D da) bo'lgan qism to'plami va uning ortogonal proyeksiyalari $S_1=\left\{x\in\mathbb{R}^n:(x,y)\in S\right\}$ va $S_2=\left\{y\in\mathbb{R}^m:(x,y)\in S\right\}$ hech qayerda zich bo'lmasa, u holda $D\backslash S$ sohada separat-garmonik bo'lgan har qanday $u(x,y)$ funksiya D sohaga garmonik davom etadi.*

12-teorema. *Aytaylik, $D\subset\mathbb{R}^n$ va $G\subset\mathbb{R}^m$ ikki soha, $E\subset D$ va $F\subset G$ ikki to'plam berilgan bo'lsin. Agar $D\Supset E$ – kompakt, F esa G sohaning to'ldiruvchisi $G\backslash F\neq\varnothing$ bo'sh bo'lmagan yopiq (G da) qism to'plami bo'lsa, u holda $(D\times G)\backslash(E\times F)$ da separat-garmonik bo'lgan har qanday $u(x,y)$ funksiya $D\times G$ sohaga garmonik davom etadi.*

13-teorema. *Aytaylik, $D\subset\mathbb{R}^n$ va $G\subset\mathbb{R}^m$ ikki soha, $E\subset D$ va $F\subset G$ ikki to'plam berilgan bo'lsin. Agar E – D sohaning hech qayerda zich bo'lmagan yopiq (D da) qism to'plami, F esa G sohaning to'ldiruvchisi $G\backslash F\neq\varnothing$ bo'sh bo'lmagan* *yopiq (G da) qism to'plami bo'lsa, u holda $(D\times G)\setminus(E\times F)$ da separat-garmonik bo'lgan har qanday $u(x,y)$ funksiya $D\times G$ sohaga garmonik davom etadi.*

To'rtinchi bobning ikkinchi paragrafida esa $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalar uchun Osgud-Braun teoremasining analogi sifatida quyidagi teorema isbotlangan.

14-teorema. *Aytaylik, $D\subset\mathbb{C}^n$ va $G\subset\mathbb{C}^m$ – sohalar, $E\Subset D$ va $F\Subset G$ esa kompakt qisim to'plamlar bo'lsin. Agar $\boldsymbol{\alpha}=(\alpha',\alpha'')$ – $D\times G$ sohada haqiqiy analitik differensial biforma va $u(z,w)$ funksiya $(D\times G)\setminus(E\times F)$ sohada $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik bo'lsa, u holda $D\times G$ sohada shunday haqiqiy analitik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik $\tilde{u}(z,w)$ funksiya topiladi va $\tilde{u}(z,w)\big|_{(D\times G)\setminus(E\times F)}\equiv u(z,w)$ bo'ladi.*

Ushbu teoremadan kelib chiqadiki, $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalar ham kompakt maxsusliklarga ega emas.

Muallif ushbu dissertatsiya natijalarini ko'p marotaba muhokama qilgani va qimmatli maslahatlarini berganligi uchun akademik A.Sadullayevga, va dissertatsiyada ko'rilgan masalalarni qo'yish va dissertatsiya ishiga doimiy e'tiborda bo'lganligi uchun ilmiy rahbari, fizika-matematika fanlari doktori S.A. Imomkulovga chuqur minnatdorchilik bildiradi.

XULOSA

Dissertatsiya ishi separat-garmonik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarni analitik davom ettirish hamda ushbu funksiyalarning bartaraf etiladigan maxsusliklarini o'rganishga bag'ishlangan, bu yerda $\boldsymbol{\alpha}=(\alpha',\alpha'')$ – biforma.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

garmoniklik radiusli o'zgaruvchan separat-garmonik funksiyalar uchun Hartogs lemmasining analogi isbotlangan;

tekisliklar dastasida garmoniklik shartlarini qanoatlantiruvchi separat-garmonik funksiyalarnining davom etishi haqidagi teorema isbotlangan;

$\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmonik funksiyalarning ta'riflari kiritilgan;

$\boldsymbol{\alpha}$-separat-subgarmonik funksiyalarning α-subgarmonikligi va $\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarning α-garmonikligi isbotlangan;

$\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalar uchun Lelon teoremasining analogi isbotlangan;

$\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalarning tayinlangan yo'nalish bo'yicha analitik davom ettirilishi haqidagi teorema isbotlangan;

separat-garmonik funksiyalar uchun Osgud-Braun tipidagi teoremalar isbotlangan;

$\boldsymbol{\alpha}$-separat-garmonik funksiyalar uchun Osgud-Braun teoremasining analogi isbotlangan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.FM.55.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАН БЕРУНИ

КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АБДИКАДИРОВ СУЛТАНБАЙ МАМУТОВИЧ

АНАЛИТИЧЕСКОЕ ПРОДОЛЖЕНИЕ СЕПАРАТНО-ГАРМОНИЧЕСКИХ И α-СЕПАРАТНО-ГАРМОНИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ

01.01.01 – Математический анализ

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Нукус – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2024.1.PhD/FM1000.

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ik-mat.urdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель:	**Имомкулов Севдиёр Акрамович** доктор физико-математических наук
Официальные оппоненты:	**Шоимкулов Баходир Аллабердиевич** доктор физико-математических наук, профессор **Атамуратов Алимардон Абдиримович** кандидат физико-математических наук, старший научный сотрудник
Ведущая организация:	**Ташкентский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится «10» мая 2025 года в 10:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхан Беруни. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х. Алимджана, дом 14. Тел.: (99862)224-66-11, факс: (99862) 224-67-00, e-mail: ik-mat.urdu@umail.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета имени Абу Райхан Беруни. (зарегистрирована за № D792). (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, дом 14. Тел.: (99862) 224-66-11, факс: (99862) 224-67-00). e- mail: arm@urdu.uz

Автореферат диссертации разослан «22» апреля 2025 года.

(протокол рассылки № 2 от «22» апреля 2025 года).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Б.И. Абдуллаев
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор физико-математических наук

А.А. Рейимберганов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, кандидат физико-математических наук

Б.А. Бабажанов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор физико-математических наук

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В большинстве научных и прикладных исследованиях, проводимых в различных областях современной математики на мировом уровне, широко применяются голоморфные, субгармонические и гармонические функции. В настоящее время задачи аналитического продолжения сепаратно-аналитических и сепаратно-гармонических функций, а также выявления их устранимых особенностей являются одними из наиболее изучаемых направлений исследований в области теории потенциалов и плюрипотенциалов. Кроме того, исследование задачи аналитического продолжения $\boldsymbol{\alpha}$-сепаратно-гармонических функций, которые являются обобщением сепаратно-гармонических функций, остаётся одной из важных задач современного математического анализа.

